Ko‘pchilik tadqiqotchilar konsullik terminlarini tildagi diplomatik tizim bilan birga ishlatiladigan mustaqil terminologik tizim sifatida qaraydilar. Mazkur dalil xalqaro huquq normalariga mos shakllantirilgan maxsus konsullik xizmati institutining mavjudligi bilan asoslanadi [2; https://lex.uz/docs/2750193].

Konsullik terminlari quyi tizimlarga ham bo‘linadi: 1. Konsullik darajalari nomlari, rasmiy lavo-zimga ega shaxslar (*der Konsul, der Generalkonsul, der Vizekonsul* usw.)nomlaridi. 2. Konsullik vakolatxonalari nomlari (*das Konsulat, die konsularische Vertretung, die Konsularabteilung,* usw.); 3. Rasmiy hujjatlarning nomlari (*das Ernennungsschreiben, die Exequatur, das Visum* usw.). 4. Konsullik amaliyotidan olingan leksika (*das Konsulargericht, die Konsulargebühr, konsularischer Schutz,* usw.).

Xulosa va takliflar. Ta‘kidlash joizki, nemis tiliga kirib kelgan diplomatik leksikani haqiqiy nemischa, ruscha va o‘zbekcha leksika bilan almashtirish, ya’ni kalkalash tendensiyasi mavjud. Misol uchun, Lettre de creance – Beglaubigungsschreiben; верительная грамота; ishonch yorlig‘i, der Botschafter Ambassadeur – (der Ambassadeur); посол; elchi va boshqalar.

Diplomatiya sohasida til tejamkorligi nuqtai nazaridan leksik tizimning xarakterli elementi bo‘lmish so‘zlarning qisqartma shakllari qo‘llaniladi. Misol uchun, BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti), SHHT (Shanxay Hamkorlik Tashkiloti), EI (Yevropa Ittifoqi) va h.k.

Diplomatiyaning tezkor rivojlanishi, siyosiy tuzumlarning yemirilishi, mamlakatlarning tashqi siyosiy maydondagi positsiyasi, geosiyosiy vaziyatning tubdan o‘zgarishi diplomatik tilda ham yangi leksikaning yuzaga chiqishiga olib kelmoqda. Keyingi paytlarda diplomatiya tilida quyidagi diplomatik leksik birliklar paydo bo‘layotganligi buning yaqqol dalilidir: Misol uchun, “separatist (ayirmachi)” “sanksiya”, “sanksiyalar tahdidi” va hokazo.

Xulosa qilib aytganda, diplomatiya sohasi terminlari etimologiyasi, shakllanishi, rivojlanishi, tematik xosligi va xarakteristikasiga ko‘ra, umumiy va tor doirada qo‘llaniladigan sohaviy terminlardan iborat. Biroq ular muayyan tizimli aloqa va munosabatga ham egadirlar. Bu esa mazkur leksik birliklarni diplomatiya tili deb atashni taqozo qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Heller K. Der Wortschatz unter dem Aspekt des Fachwortes–Versuch einer Systematik // Wissenschaftliche Zeitschrift der Karl-Marx Universität. Leipzig, 1970, № 4, s. 531–544.

(2). Konsullik munosabatlari to‘g‘risidagi Vena konvensiyasi, 1963 // https://lex.uz/docs/2750193

(3). Пономарёва Е.В. Лексико-стилистические аспекты перевода дипломатических текстов (на материале сайтов МИДа России и Германии). Дис. ...на соискание степени магистра / Е.В.Пономарева; науч. рук. В. Н.Корнев; СПбГУ. Санкт-Петербург, 2017, с. 30.

(4). Фарафонова Л.Г. Система дипломатического подстиля и ее исследование на уровне текста: на материале современного немецкого языка. Дисс. ... канд. филол. наук, Москва, 1977, 203 с.

Turaxanov Akrom Abdulhakimovich (Farg‘ona davlat universiteti “Pedagogika” kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) E-mail: akromturahanov@gmail.com; ORCID ID: 0009-0003-5218-0891)

Turaxanova Firuza Shavkatovna (Amerika Texnologiya universiteti magistranti)

HOZIRGI O‘ZBEK RAQAMLI DISKURSIDA INGLIZCHA O‘ZLASHMALARNING MAVZUIY-KONSEPTUAL VA STRUKTURAVIY-SEMANTIK TAHLILI

Annotatsiya. *Maqola hozirgi o‘zbek raqamli diskursida inglizcha leksik birliklarning mavzuiy-konseptual tashkil etilishi, semantik transformatsiyasi va strukturaviy-grammatik moslashuviga bag‘ishlangan. Tadqiqot materiallari asosida o‘zlashmalarning mavzuiy sohalari tizimlashtirildi, semantik va konseptual o‘zgarishlar farqlandi, morfologik hamda so‘z yasalishiga oid integratsiya mezonlari bayon qilindi. Post, startup, target, blogger, hashtag birliklari, shuningdek, postlar, like-lar va commentlar shakllari ko‘rib chiqiladi. Tavsif sifat tahliliga asoslanadi; birliklarning chastotasi va tarqalishi haqida miqdoriy xulosalar ilgari surilmaydi.*

Kalit so‘zlar: *inglizcha o‘zlashmalar, o‘zbek tili; raqamli diskurs, mavzuiy-konseptual tashkil etilish, semantik moslashuv, konseptual kategoriyalash, morfologik integratsiya, so‘z yasalishi.*

СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ И ТЕМАТИКО-КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ АНГЛИЙСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В СОВРЕМЕННОМ УЗБЕКСКОМ ЦИФРОВОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация. *Статья посвящена тематико-концептуальной организации англоязычных лексических единиц в современном узбекском цифровом дискурсе, их семантической трансформации и структурно-грамматической адаптации. На основе исследуемого материала систематизированы*

тематические области заимствований, разграничены семантические и концептуальные изменения, а также изложены критерии морфологической интеграции и словообразовательной адаптации. Рассматриваются такие единицы, как post, startup, target, blogger, hashtag, а также формы post-lar, like-lar и commentlar. Описание основано на качественном анализе; количественные выводы о частотности и распространённости рассматриваемых единиц не выдвигаются.

Ключевые слова: *английские заимствования, узбекский язык, цифровой дискурс,тематико-концептуальная организация, семантическое соответствие, концептуальная категоризация, морфологическая интеграция, словообразование.*

THEMATIC-CONCEPTUAL AND STRUCTURAL-SEMANTIC ANALYSIS OF ENGLISH LOANWORDS IN CONTEMPORARY UZBEK DIGITAL DISCOURSE

Annotation. *This article examines the thematic-conceptual organization, semantic transformation, and structural-grammatical adaptation of English lexical units within contemporary Uzbek digital discourse. Based on the research material, the thematic domains of these loanwords are systematized, semantic and conceptual shifts are identified, and criteria for morphological and word-formation integration are outlined. Specific units–such as "post", "startup", "target", "blogger', and "hashtag"— as well as forms like "postlar" (posts), "likelar" (likes), and "kommentlar" (comments), are analyzed. The description is based on qualitative analysis; no quantitative conclusions regarding the frequency or distribution of these units are presented.*

Keywords: *English loanwords, Uzbek language, digital discourse, thematic-conceptual organization, semantic adaptation, conceptual categorization, morphological integration, word formation.*

Kirish. Inglizcha o‘zlashmalarning kognitiv-semantik moslashuvini o‘rganishni ularning mavzuiy-konseptual tashkil etilishini aniqlashdan boshlash maqsadga muvofiq. Mavzuiy tasnif birlikning qo‘llanish sohasini aks ettirsa, konseptual tahlil u bilan bog‘liq bilim, kategoriya, ssenariy va freymlarni aniqlaydi. Shu sababli o‘zlashmalarni oddiy sanab o‘tishdan tizimli tavsiflashga o‘tish zamonaviy voqelikning qaysi jihatlari inglizcha leksika vositasida ifodalanishini aniqlash imkonini beradi [1;2;3].

Mazkur tadqiqotda inglizcha o‘zlashmalarning mavzuiy-konseptual tashkil etilishi ularning qo‘llanish sohalari bilan o‘zbek tili sohiblari tegishli obyekt, jarayon va kommunikativ vaziyatlarni kategoriyalash hamda talqin qilishda foydalanadigan konseptual tuzilmalar o‘rtasidagi tizimli bog‘liqlik sifatida tushuniladi. Bu yondashuv o‘zlashmani ayni paytda leksik birlik, mavzuiy maydon elementi va dolzarb konseptni ifodalash vositasi sifatida ko‘rishga imkon beradi [2;3].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Bunday qarashning nazariy asosini kognitiv tilshunoslik qoidalari tashkil etadi. Ch.Fillmor ma’noni freym deb ataladigan bilim tuzilmasi bilan bog‘laydi [2]; J.Lakoff kategoriyalash va tajribaning konseptual tashkil etilishini tahlil qiladi [3], D.Girarts esa leksik semantikaning nazariy yondashuvlarini tizimlashtiradi [4]. Shuning uchun o‘zlashmalar tahlilida nafaqat ularning ma’nosini, balki raqamli muloqotda ifodalab beradigan voqelik qismini ham hisobga olish muhimdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Metodik asos sifatida tadqiqotda belgilangan qiyosiy, komponent, kontekstual, kognitiv-semantik va strukturaviy-so‘z yasalish tahlili qo‘llanadi. Keltirilgan misollar yangi miqdoriy kuzatuv natijalari emas, balki sifat jihatidan o‘rganilgan leksik materialdir. Maqolaning maqsadi inglizcha birlikning mavzuiy mansubligidan uning ma’nosi, konseptual mazmuni, strukturaviy shakllanishi va diskursda mustahkamlanish imkoniyatigacha bo‘lgan asosiy jihatlarni yagona tahliliy tizimda ko‘rsatishdir. Shuningdek, tadqiqot materiali sifatida ko‘rib chiqilgan post, startup, target, blogger, hashtag, postlar, likelar, commentlar kabi birliklarni ham ko‘rsatish mumkin.

Tahlil va natijalar. *Inglizcha o‘zlashmalarning mavzuiy-konseptual tashkil etilishi.* Mavzuiy guruh material tashkil etilishining tashqi, kuzatiladigan darajasini ifodalaydi, konseptual guruh esa bilim va tajribaning chuqurroq tuzilishini aks ettiradi. Masalan, raqamli soha birliklari mavzu jihatidan axborot texnologiyalariga mansub bo‘lishi, konseptual jihatdan esa «raqamli harakat», «kommunikatsiya», «axborot almashinuvi», «virtual makon» yoki «raqamli identiklik»ni ifodalashi mumkin. Shuning uchun mavzuiy tasnif konseptual tahlil bilan to‘ldiriladigan dastlabki bosqich hisoblanadi [2;3].

Nazariy material asosida hozirgi o‘zbek raqamli diskursidagi inglizcha o‘zlashmalarning quyidagi asosiy mavzuiy sohalari ajratiladi: axborot texnologiyalari va raqamli xizmatlar; ijtimoiy tarmoqlar va internet muloqoti; biznes va marketing; ta’lim va ilmiy muloqot; ommaviy madaniyat va ko‘ngilochar faoliyat; kundalik raqamli faoliyat; kasbiy muloqot; moliya va elektron tijorat; ijtimoiy-kommunikativ soha. Bu guruhlar o‘zaro bog‘liq: bitta birlik turli sohalarda ishlatilishi va kontekstga qarab mavzuiy mansubligini o‘zgartirishi mumkin [1].

Yangi obyektlar, jarayonlar va faoliyat turlari bilan bog‘liq raqamlashtirish konseptual sohasi alohida ahamiyatga ega. Ingliz tili texnologiya, platforma va raqamli amaliyotlar bilan birga tarqaladigan terminlarning manbalaridan biridir. Masalan, startup innovatsiya va raqamli tadbirkorlik konseptlarini, update raqamli mahsulotni yangilashni, post esa onlayn muhitdagi nashrni faollashtiradi. Shunday qilib, o‘zlashma nafaqat nomlash, balki yangi voqelikni konseptuallashtirish vazifasini ham bajaradi [1;3-b.].

Ijtimoiy tarmoqlar va internet muloqoti muhim mavzuiy sohadir. Ularning interaktivligi, murojaatning moslashuvchanligi, janrlarning aralashishi va til vositalarining doimiy yangilanishi inglizcha leksikadan foydalanishga sharoit yaratadi. Bu yerda o‘zlashmalar foydalanuvchi harakatlari, nashr turlari, muloqot shakllari, raqamli obyektlar va tarmoq identikligini ifodalaydi. Post, story, follower, like, blogger, hashtag birliklari texnologiya bilan birga raqamli platformalardan foydalanishning ijtimoiy amaliyotiga ham bog‘liq [1].

1-jadval

Inglizcha o‘zlashmalarning mavzu sohalari

Mavzuiy soha	Asosiy mazmun	Ifodalanadigan konseptual sohalar	Qo‘llanish xususiyati
Axborot texnologiyalari	Texnologiya, dastur, raqamli jarayonlar	Raqamli texnologiya, ma’lumotlar, dasturlash, virtual muhit	Terminologik, nominativ
Ijtimoiy tarmoqlar	Nashrlar, muloqot, akkaunt, auditoriya	Raqamli muloqot, identiklik, hamjamiyat	Kommunikativ, identifikatsion
Biznes va marketing	Targ‘ibot, sotuv, brending	Bozor, mijoz, tovar, ilgari surish	Kasbiy, reklama
Elektron tijorat	Onlayn xarid va raqamli xizmatlar	Xarid, to‘lov, buyurtma, servis	Nominativ, funksional
Ta’lim	Raqamli o‘qitish va ta’lim texnologiyalari	Ta’lim, bilim, raqamli ta’lim muhiti	Akademik, kasbiy
Ommaviy madaniyat	Musiqa, kino, ko‘ngilochar faoliyat, media kontent	Madaniyat, dam olish, mashhurlik, identiklik	Emotsional, baholovchi
Kasbiy muloqot	Kasbiy jarayonlar va vositalar	Kasb, kompetentlik, kasbiy identiklik	Terminologik

Biznes, marketing va elektron tijorat alohida guruhni tashkil etadi. Iqtisodiy faoliyatning raqamlashtirilishi xalqaro biznes modellari, platformalar va marketing texnologiyalarining tarqalishi bilan kechadi; ularga oid inglizcha nomlar o‘zbek tilidagi muloqotga ham kirib keladi. Ular konseptual jihatdan «tovar», «xizmat», «ilgari surish», «mijoz», «brend», «bozor», «reklama» va «boshqaruv» sohalariga tegishli. Brand, marketing, target kasbiy nomlashda, reklama kontekstida esa qo‘shimcha baholovchi yoki ta’sir ko‘rsatuvchi vazifada qo‘llanishi mumkin.

Konseptual kategoriyalar va freymli talqin. Ushbu jarayonni tushuntirish uchun konseptual kategoriya tushunchasiga murojaat qilish zarur. Kognitiv tilshunoslikda kategoriya obyekt va hodisalarni muayyan belgilar asosida birlashtirib, bilimni tashkil etish usuli sifatida qaraladi. Raqamli diskursda inglizcha birliklar alohida holda emas, balki raqamli voqelikning mavjud va shakllanayotgan kategoriyalari doirasida o‘zlashtiriladi [3;4].

Masalan, «ijtimoiy tarmoqlar» mavzuiy sohasi «muloqot ishtirokchisi», «raqamli harakat», «raqamli obyekt», «ijtimoiy aloqa» va «axborot kontenti» kategoriyalari atrofida tashkil etilishi mumkin. Follower muloqot ishtirokchisini, like raqamli harakatni, post axborot kontentini, hashtag esa raqamli muloqotni tartibga solish vositasini ifodalaydi [2;3].

Ch.Fillmorning freym semantikasi muayyan vaziyat elementlari o‘rtasidagi munosabatlarni hisobga olishga imkon beradi [2]. Raqamli diskursda bitta leksema foydalanuvchi, platforma, harakat, obyekt va natijani o‘z ichiga oluvchi yaxlit ssenariyni faollashtirishi mumkin. Demak, konseptual moslashuv o‘zlashmaning foydalanuvchilarga tanish raqamli o‘zaro ta’sir ssenariysiga kiritilishida ham namoyon bo‘ladi.

«Obyekt» kategoriyasiga raqamli mahsulot, platforma va xizmatlar; «harakat»ga foydalanuvchi amallari; «jarayon»ga ketma-ket raqamli harakatlar; «ishtirokchi»ga foydalanuvchi rollari; «vosita»ga ra-

qamli operatsiyalar vositalari kiradi. «Makon» virtual muhit va aloqa kanallarini; «natija» harakat mahsuli yoki oqibatini; «holat» obyekt yoki muloqot holatini; «baho» raqamli hodisaga munosabatni; «ijtimoiy identiklik» esa professional, ijtimoiy yoki raqamli guruhga mansublikni qamrab oladi [3].

2-jadval

Konseptual kategoriyalar

Konseptual kategoriya	Kognitiv mazmun	Raqamli diskursdagi odatiy vazifa
Obyekt	Raqamli mahsulot, servis, platforma	Nomlash
Harakat	Foydalanuvchi amali	Harakatni ifodalash
Jarayon	Raqamli harakatlar ketma-ketligi	Jarayonni tavsiflash
Ishtirokchi	Foydalanuvchi, mutaxassis, mijoz, muallif	Identifikatsiya
Vosita	Raqamli faoliyat vositasi	Vositaning nomlanishi
Makon	Virtual muhit, raqamli platforma	Makoniy konseptuallashtirish
Natija	Harakat mahsuli yoki samarasi	Natijani tavsiflash
Holat	Obyekt yoki foydalanuvchining holati	Holatni tavsiflash
Baho	Obyekt yoki harakatga munosabat	Ekspressiv/baholovchi
Ijtimoiy identiklik	Guruh yoki hamjamiyatga mansublik	Identifikatsion

Taklif etilayotgan tasnif inglizcha o‘zlashmalarning muayyan korpusini o‘zaro bog‘liq parametrlar bo‘yicha taqsimlashga mo‘ljallangan ochiq tahliliy vositadir. Mavzuiy mansublik bilan konseptual mansublikni farqlash zarur: bitta mavzuiy soha bir nechta konseptni qamrab olishi, bitta konsept esa turli sohalarda namoyon bo‘lishi mumkin. Masalan, «kommunikatsiya» konsepti ijtimoiy tarmoqlar, messenjerlar, ta’lim va kasbiy muhitda uchraydi. Binobarin, konseptual tuzilma mavzuiy tuzilmaga nisbatan moslashuvchanroqdir [3;4].

Xulosa va takliflar. Tahlil natijalari hozirgi o‘zbek raqamli diskursida inglizcha o‘zlashmalarning strukturaviy-grammatik va so‘z yasalish moslashuvi grafik-fonetik o‘zlashtirish, morfologik va grammatik integratsiya, sintaktik moslashuv, so‘z yasalish mahsuldorligi va diskursiv barqarorlashuvni qamrab oluvchi ko‘p darajali jarayon ekanligini ko‘rsatadi [1;4;6;7].

Morfologik moslashuv inglizcha asosning o‘zbekcha grammatik ko‘rsatkichlarni qabul qilishi va qabul qiluvchi til tizimiga muvofiq qo‘llanishida namoyon bo‘ladi. So‘z yasalish moslashuvi esa o‘zlashgan birlikning yangi leksik birliklar yaratishda ishtirok etadigan yasovchi asosga aylanishi bilan tavsiflanadi. Shuning uchun grammatik ko‘rsatkichning qo‘shilishi morfologik integratsiya, derivatsion model orqali yangi nomning hosil bo‘lishi esa so‘z yasalish moslashuvidan dalolat beradi [6;7].

Ikkinchi bobda aniqlangan umumiy bog‘liqlik quyidagicha ifodalanadi: *inglizcha birlik → o‘zlashish → lisoniy integratsiya → strukturaviy-grammatik moslashuv → so‘z yasalish mahsuldorligi ↔ semantik va konseptual moslashuv → pragmatik ixtisoslashuv → raqamli diskursda qo‘llanish → diskursiv mustahkamlanish.*

Taklif etilgan mavzuiy-konseptual tasnif axborot texnologiyalari, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli muloqot, media kontent yaratish, marketing va kasbiy faoliyat leksikasini qamrab oladi. Uni tahliliy sxema sifatida talqin qilish lozim: keltirilgan birliklar ro‘yxati mavzuiy guruhlarning chastotasini aniqlash yoki ulardan biri o‘zbek raqamli diskursida ustunligini isbotlash imkonini bermaydi.

Strukturaviy-grammatik integratsiya kuzatiladigan belgilar: birlikning yozilishi, o‘zbekcha so‘zlar bilan birikishi, o‘zbek grammatik ko‘rsatkichlarini qabul qilishi va gapdagi sintaktik vazifasi bo‘yicha aniqlanishi kerak. Bunday belgining mavjudligi o‘zlashgan asos muayyan kontekstda qanday qo‘llanganini ko‘rsatadi, ammo shaklning muntazamligi, so‘z yasash mahsuldorligi yoki ingliz tilidan bevosita kirib kelganini avtomatik ravishda isbotlamaydi [1;6;7].

Asosiy metodologik xulosa til shakli, semantik o‘zgarish va konseptual talqin belgilarini alohida tekshirish zarurligidir. Raqamli nashrda inglizcha elementning uchrashi o‘zbek tilida uning uzil-kesil mustahkamlanganini o‘z-o‘zidan anglatmaydi. Chastota, platformalar bo‘yicha taqsimot va qo‘llanish dinamikasi maxsus korpus tadqiqotini talab qiladi; shuning uchun bu maqolada bunday ko‘rsatkichlar berilmagan [1; 4].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Haspelmath M. Lexical Borrowing: Concepts and Issues // Loanwords in the World's Languages: A Comparative Handbook / ed. by M. Haspelmath, U. Tadmor. Berlin, New York, De Gruyter Mouton, 2009. p. 35–54.

(2). Fillmore C.J. Frame Semantics. Linguistics in the Morning Calm. Seoul: Hanshin Publishing Company, 1982, p. 111–137.

(3). Lakoff G. Women, Fire, and Dangerous Things: What Categories Reveal about the Mind. Chicago, University of Chicago Press, 1987.

(4). Geeraerts D. Theories of Lexical Semantics. Oxford, Oxford University Press, 2010.

(5). Fauconnier G., Turner M. The Way We Think: Conceptual Blending and the Mind's Hidden Complexities. New York, Basic Books, 2002.

(6). Bauer L. English Word-Formation. Cambridge, Cambridge University Press, 1983.

(7). Plag I. Word-Formation in English. Cambridge, Cambridge University Press, 2003.

Nurmanov Furqat Ismoilovich (O‘zJOKU dotsenti, f.f.n.; nurmanovfurqat@gmail.com)

O‘ZBEK ILMIY TILSHUNOSLIGIGA YEVROPA FONETIK TALQINLARINING KIRIB KELISHI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada Yevropa fonetika va fonologiya maktablarida shakllangan nazariy-metodologik qarashlarning o‘zbek ilmiy tilshunosligiga kirib kelishi hamda milliy fonetik ta’limot taraqqiyotiga ta’siri tarixiy-qiyosiy va nazariy-tahliliy yondashuvlar asosida tadqiq etiladi. O‘zbek adabiy tili fonetikasiga oid ilmiy manbalarda nutq tovushlarining artikulyatsion va akustik xususiyatlarini tavsiflash, fonetika va fonologiyaning tadqiqot obyektlarini farqlash, fonemalarning farqlovchi belgilari hamda fonologik oppozitsiyalarni izohlash tamoyillari Yevropa tilshunosligi vakillarining ilmiy konsepsiyalari bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Shuningdek, XX–XXI asrlarda yaratilgan o‘zbek fonetikasiga oid tadqiqotlarda qo‘llanilgan nazariy qarashlar va metodologik yondashuvlarning izchilligi, o‘ziga xos jihatlari hamda xalqaro fonetik-fonologik an’analar bilan munosabati yoritiladi.*

Kalit so‘zlar: *o‘zbek tilshunosligi, Yevropa fonetika maktablari, fonetika, fonologiya, artikulyatsion fonetika, akustik fonetika, fonema, fonologik oppozitsiya, metodologiya, o‘zbek adabiy tili.*

ПРОНИКНОВЕНИЕ ЕВРОПЕЙСКИХ ФОНЕТИЧЕСКИХ КОНЦЕПЦИЙ В УЗБЕКСКОЕ НАУЧНОЕ ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Аннотация. *В статье исследуется процесс проникновения теоретико-методологических концепций, сформировавшихся в европейских фонетических и фонологических школах, в узбекское научное языкознание, а также их влияние на развитие национального фонетического учения. На основе историко-сравнительного и теоретико-аналитического подходов сопоставляются принципы описания артикуляционных и акустических характеристик речевых звуков, разграничения предметных областей фонетики и фонологии, интерпретации дифференциальных признаков фонем и фонологических оппозиций, представленные в научной литературе по фонетике узбекского литературного языка, с теоретическими концепциями представителей европейского языкознания. Кроме того, анализируются преемственность и специфика теоретических положений и методологических подходов, применяемых в исследованиях узбекской фонетики XX–XXI веков, а также их соотношение с международными фонетико-фонологическими традициями.*

Ключевые слова: *узбекское языкознание, европейские фонетические школы, фонетика, фонология, артикуляционная фонетика, акустическая фонетика, фонема, фонологическая оппозиция, методология, узбекский литературный язык.*

THE INTRODUCTION OF EUROPEAN PHONETIC THEORIES INTO UZBEK LINGUISTICS

Annotation. *This article examines the introduction of theoretical and methodological concepts developed within European phonetic and phonological schools into Uzbek linguistics and their influence on the development of the national phonetic tradition. Drawing on historical-comparative and theoretical-analytical approaches, the study compares the principles used to describe the articulatory and acoustic properties of speech sounds, distinguish the respective domains of phonetics and phonology, and interpret the distinctive features of phonemes and phonological oppositions in scholarly literature on the phonetics of standard Uzbek with the theoretical frameworks advanced by European linguists. Furthermore, the article analyses the continuity and distinctive characteristics of the theoretical principles and methodological approaches employed in studies of Uzbek phonetics in the twentieth and twenty-first centuries, as well as their relationship to international phonetic and phonological traditions.*